

**“O‘ZLITINEFTGAZ” AJ HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI DSc.23/25.08.2021.T.136.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**NEFT VA GAZ KONLARI GEOLOGIYASI HAMDA QIDIRUVI  
INSTITUTI DAVLAT MAUASSASASI**

**OMONOV ODILJON SOLIJONOVICH**

**NEFT VA GAZ QUDUQLARIDA SODIR BO‘LADIGAN GEOLOGIK  
MURAKKABLIKLARGA QARSHI KURASHISH**

**04.00.11– Quduqlarni burg‘ilash va o‘zlashtirish texnologiyasi**

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent– 2024**

**Texnika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)  
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor (DSc)  
on technical sciences**

**Omonov Odiljon Solijonovich**

Neft va gaz quduqlarini burg‘ilashda sodir bo‘ladigan geologik murakkabliklarga qarshi kurashish..... 5

**Омонов Одилжон Солижонович**

Борьба с геологическими осложнениями возникающие в процессе бурения скважин..... 29

**Omonov Odiljon Solijonovich**

The fight against geological complications arising in the process of drilling wells ..... 55

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works..... 59

**“O‘ZLITINEFTGAZ” AJ HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI DSc.23/25.08.2021.T.136.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**NEFT VA GAZ KONLARI GEOLOGIYASI HAMDA QIDIRUVI  
INSTITUTI DAVLAT MAUASSASASI**

**OMONOV ODILJON SOLIJONOVICH**

**NEFT VA GAZ QUDUQLARIDA SODIR BO‘LADIGAN GEOLOGIK  
MURAKKABLIK LARGA QARSHI KURASHISH**

**04.00.11 – Quduqlarni burg‘ilash va o‘zlashtirish texnologiyasi**

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4. DSc/T563 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya neft va gaz konlari geologiyasi hamda qidiruvi instituti Davlat muassasasida bajarilgan. Dissertatsiya avtoreferati 3 tilda (O'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasi (www.liting.uz) va Ziyonet ta'lim axborot tarmog'ida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:** **Rahimov Akbarxo'ja Kamilovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Zakirov Olimjon Abdurahimovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Xo'jaev Ismatilla Kushaevich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Ratov Boranboy Tavbosarovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:** **Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika Universiteiti**

Dissertatsiya himoyasi "O'ZLITINEFTGAZ" AJ huzuridagi Dsc.23/25.08.2021.T.136.01 ilmiy kengashning 2025 yil «20» fevral soat 10-00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100029, Toshkent shahri, Taras Shevchenko ko'chasi, 2-uy tel: (99871) 280-67-00; faks 256-66-48;) e-mail: liting@liting.uz).

Dissertatsiya bilan "O'ZLITINEFTGAZ" AJ Axborot resurs markazida tanishish mumkin (№14 raqami bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: 100029, Toshkent shahri, Taras Shevchenko ko'chasi 2-uy, tel: (99871) 280-67-00; faks 256-66-48;) e-mail: liting@liting.uz.);

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2025 yil «\_\_» \_\_\_\_\_ dagi №\_\_ - raqamli reestrda tasdiqlandi).



**S. Nazarov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
bir martalik ilmiy kengash raisi,  
texnika fanlari doktori, professor

**R.U. Shafiev**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
bir martalik ilmiy kengash kotibi,  
texnika fanlari doktori, katta ilmiy xodim

**A.A. Zakirov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
bir martalik ilmiy kengash seminar raisi,  
texnika fanlari doktori, professor

## **KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda neft va gaz qazib olishning ko'payishi, asosan, burg'ilash ishlarining hajmi ortishi va tezlashishi hisobiga, ayniqsa murakkab geologik – texnik sharoitlarda qazish hisobiga ta'minlanadi. Murakkab tog' – geologik sharoitlarda quduqlarni muvaffaqiyatli burg'ilashni amalga oshirish – ilg'or burg'ilash texnikasi va texnologiyasini, texnik vositalarni, samarali texnologik materiallar, turli qo'shimchalar va kimyoviy reagentlardan kompleks foydalangan holda, hamda geologik murakkabliklarning oldini olish va bartaraf etishning yangi usullarini keng joriy etmasdan mumkin emas. Burg'ilash va tamponaj qorishmalarining yangi tarkiblarini, tamponaj ko'priklarini o'rnatishning yangi usullarini ishlab chiqish orqali murakkabliklarni oldini olish va bartaraf etish usullari bilan burg'ilash tezligini jadallashtirish ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Dunyoda amaliyotda murakkabliklarga qarshi kurashish usullarining xilma-xilligi, quduqlarni burg'ilashning geologik va texnik sharoitlarga bog'liq. Muayyan geologik va texnik sharoitlar uchun burg'ilash qorishmasining qatlamga yutilishini oldini olish va bartarflashning eng maqbul usullarini tanlash, burg'ilash va berkitish ishlari jarayonini nazorat va kuzatuv natijalariga, geofizik va gidrodinamik usullar bilan murakkab tuzilmalarni tadqiqot qilish natijalariga asoslangan. Texnik vositalarni tanlash va geologik murakkabliklarga qarshi kurashish usullari qatlamlarning geologik tuzilishi va gidrodinamik xususiyatlarini aks ettiruvchi miqdoriy mezonlarga asoslangan. Alohida e'tibor, quduq devorlaridagi jinslarining o'pirilishi, to'kilishi, novlar paydo bo'lishini oldini olish choralarini ishlab chiqishga, burg'ilash qorishmalarining qatlamga yutilishini oldini olish va yo'q qilishning yangi usullarini ishlab chiqishga, quduq devorlarining barqarorligini saqlashga, burg'ilash asboblarining qisilib qolishini oldini olishga, burg'ilash va tamponaj qorishmalarining yangi tarkiblaridan foydalanishga, neft va gazni qatlamdan sizib chiqib ketishini bartaraf etishga qaratilgan. Biroq, murakkabliklarni oldini olish va bartaraf qilishning mavjud usullari bo'lishiga qaramay, ushbu turdagi murakkabliklar quduqlarni burg'ilash jarayonida ularga qarshi kurashish muammosi hozirgacha hal qilinmagan va yanada chuqurroq tadqiqotlar o'tkazishni talab qiladi.

Mamlakatimizda mustaqillikka erishilgandan so'ng yoqilg'i-energetika sohasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2022 – 2026-yillarda Yangi O'zbekistonni yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar Strategiyasida<sup>1</sup> vektorli o'rnatish qilib: mavjud salohiyat va uning rivojlanish istiqbollari hisobga olgan holda, sohada komplekstexnologik diversifikatsiyaga, uni sifat jihatidan yangi bosqichga o'tkazish orqali ishlab chiqarishni jadal modernizatsiya qilishga qaratilgan siyosatni amalga oshirish belgilangan. Ushbu vazifalarga asoslanib, qurilishi jarayonini tezlashtirish, ilmiy-metodik asoslarini rivojlantirish usullarini

---

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan rivojlanish strategiyasi to'g'risida" 2022 – yil 28-yanvardagi PF-60-son farmoni

o'rganish katta ahamiyatga ega bo'lib, murakkabliklarni oldini olish va bartaraf etish uchun burg'ilash va tamponaj qorishmalarining samarali tarkiblarini ishlab chiqish va tamponaj ko'priklari o'rnatishning yangi usulini ishlab chiqish usuli orqali amalga oshiriladi.

Ushbu dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 – yanvardagi “Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan rivojlanish strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son, 2023-yil 27-iyuldagi PF-116-son "Kon sanoati sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma'muriy islohotlar doirasida tog'-kon sanoati va geologiya sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida” 2019-yil 18-noyabrdagi PQ-45-22–son qaroriga, shuningdek neft-gaz tarmog'ini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan boshqa normativ – huquqiy hujjatlarning vazifalarini ma'lum darajada bajarilishiga xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi.** Mazkur tadqiqot O'zbekiston Respublikasida ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirishning VIII. «Yer haqidagi fanlar (geologiya, geofizika, seysmologiya va mineral xomashyoni qayta ishlash)” ustuvor yo'nalishiga muvofiq tarzda amalga oshirildi.

#### **Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi<sup>2</sup>**

Burg'ilash qorishmalarini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar, shuningdek burg'ilash qorishmasining qatlama yutilishi, qatlamdan neft va gaz sizib chiqib ketishi, quduq devorlarining barqarorligini yo'qolishi bilan bog'liq geologik murakkabliklarning oldini olish va bartarflash uchun tamponaj qorishmalari va kompozitsiyalarining tarkiblarini ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan dunyoning yetakchi kompaniyalari, ilmiy markazlari, institutlari va firmalari mavjud bo'lib, xususan bularga: Schlumberger (Fransiya), «Mirikko» kompaniyalar guruhi (Rossiya), «SpesPetroServis» MChJ (Rossiya), Asia Petro Service (Qozog'iston), «ZBTM – Servis» MChJ (Rossiya), China Petrochemical Corporation (Xitoy), «Baroid» (AQSh) «Saudi Aramco» (Saudiya Arabistoni), «Eco Arctica» (AQSh), «Step oil tools» (AQSh), China National Petroleum Corp. (Xitoy), Petromonagas (Venesuela) va boshqalar kiradi.

Dunyoda neft va gaz quduqlarini burg'ilashda sodir bo'layotgan geologik murakkabliklar bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlarga ko'ra, bir qator ilmiy natijalar olingan, shu jumladan yuqori o'tkazuvchanlikka, yuqori g'ovaklikka, va beqaror oraliqlarni berkitishga mo'ljallangan burg'ilash va tamponaj qorishmalari tarkibi ishlab chiqilgan, 800 dan ortiq har-xil nomdagi to'ldiruvchilar aniqlangan, ular yordamida burg'ilashqorishmalarining qatlamlarga yutilishini 65% gacha oldi olingan va bartaraf qilingan.

---

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi:  
[https://mirrico.ru/career/,vk.com>schlumberger\\_career](https://mirrico.ru/career/,vk.com>schlumberger_career), <https://www.cnpc.com.cn/en/stepoiltools.ru>, [sps-company.ru](https://www.cnpc.com.cn/en/sps-company.ru) mualliflik ishlanmalarining bir-biri va boshqa manbalar bilan solishtirish natijalari asosida izohlangan.

Ular imkonsiz holatga tushib qolgandagina sement ko'priklar o'rnatish usullariga, hamda texnik va texnologik vositalarni ishlatishga, qatlamlarni berkituvchi moslamalarni qo'llashga, shuningdek portlatish usullarini qo'llashga kirishiladi.

Dunyoda neft va gaz quduqlarini burg'ilashda sodir bo'layotgan geologik murakkabliklarni oldini olish va bartaraf flashning bir qator ustivor yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda, shu jumladan: murakkabliklar mavjud quduqqa suyuqlikni qatlama yuborgandan so'ng o'ziga shimib olib shishadigan maxsus soqachalar yordamida berkitadigan, burg'ilash qorishmalariga quduq devorlarining yuzasida o'zidan hech narsa o'tkazmaydigan, qobiq hosil qilib yutilishlar va sizib chiqib ketadigan gorizontlarni mustahkamlaydigan maxsus kimyoviy reagentlar qo'shish bilan berkitiladi.

**Muammoni o'rganilganlik darajasi.** Ko'pgina mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar geologik, texnik va texnologik xarakterdagi murakkabliklarni oldini olish, bartaraf etish uchun burg'ilash va tamponaj qorishmalarining samarali tarkiblarini ishlab chiqish, hamda ularni joriy etish orqali, neft va gaz quduqlarini burg'ilashdagi geologik murakkabliklar muammolarini o'rganish bilan shug'ullanib kelmoqdalar.

Sodir bo'lishi mumkin bo'lgan murakkabliklarni oldini olish uchun ilgari ishlab chiqilgan usullar va uslublarning asosiy kamchiliklari tadqiqotchilarning strategiyasi va taktikasining aniq va asosli omillarini tanlashda, sanoat sinovlarini o'tkazishda va texnologik materiallar va vositalarning kam chiqimlilik bilan quduqlarni qazishning zamonaviy texnika va texnologiyalarini joriy etishga yetarlicha e'tibor bermasliklaridir.

So'nggi yillarda, ushbu muammo bo'yicha tadqiqotlarning nazariy va amaliy natijalariga oid ilmiy-texnik adabiyotlar va ishlab chiqarishdagi materiallar tahlili shuni ko'rsatadiki, neft va gaz quduqlarini qurilish muddatini qisqartirish ko'p jihatdan ilmiy asoslangan texnik va texnologik yechimlardan foydalanishga bog'liq.

Davlat ehtiyojlarini yoqilg'i-energetika xom-ashyosi bilan o'z vaqtida ta'minlash uchun izlov, qidiruv va foydalanish quduqlarini burg'ilash hajmini oshirish katta ahamiyatga ega. Quduqlarni burg'ilashda eng ko'p vaqt talab qiladigan, ko'p xarajatli geologik murakkabliklarga burg'ilash qorishmasining qatlama yutilishi, neft va gazning qatlamdan sizib chiqishi va quduqlarning barqarorligini buzilishidir.

Burg'ilash qorishmalarining qatlama yutilishi va ularni bartaraf qilish bilan ko'pgina mutaxassislar va olimlar, shu jumladan G.S. Abduraxmanov, B.A. Anderson, A.I. Bulatov, A.A. Gayvoronskiy, V.I. Krilov, B.M. Kurochkin, A.X. Mirzajonzoda, V.I. Mishevich, I.I. Rafienko, N.I. Titkov, R.I. Shishenko, V.G. Yasov va boshqalar shug'ullanganlar. O'zbekistonda ushbu muammolar A.K. Raximov, O'.J. Mamajonov, T.Q. Qoraboev, A.Qurbonov, Sh.X. Umedov va boshqalarning o'rganish ob'ekti bo'ldi.

A.I. Bulatov, A.A. Gayvoronskiy, V.D. Gorodnov, N.A. Kolesnikov, N.A. Krilov, E.A. Likov, V.D. Malevanskiy, O'.J. Mamajonov, M.R. Mavlyutov, A.K.

Raximov, B.T.Ratov, A.K. Samotoy kabi xorijiy va mahalliy olimlarning olib borgan ishlari neft va gazning qatlamdan sizib chiqib ketishining oldini olish va bartaraf qilish haqidagi masalalarga bag'ishlangan.

Quduqning barqarorligini ta'minlash muammolari N. G. Avetisyan, O.K. Angelopulo, J.A. Oqilov, A.M. Aminov, V.S. Voytenko, J.Grey, A.A.Rahimov, B.T. Ratov, A.A. Raupov, A N. Harvey, D.A. Burkade, D.G. Menzielarning ilmiy ishlarida ko'rib chiqilgan.

Ushbu tadqiqotchilar tomonidan olingan ma'lumotlar va bajarilgan ishlarga qaramay, geologik murakkabliklarga qarshi kurash muammosi hal qilinmagan va quduqlarni qurilishi jarayonini tezlashtirishga to'sqinlik qilmoqda. Shu munosabat bilan burg'ilash mobaynida geologik murakkabliklarning asosiy kelib chiqish sabablarini aniqlash, shuningdek ularni oldini olish va bartaraf qilish uchun yangi maqbul usullar, uslublar va yo'nalishlarni ishlab chiqish bo'yicha o'ta chuqur tadqiqotlar o'tkazish zarurati yuzaga keldi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan muassasaning ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqotlari neft va gaz quduqlarini burg'ilash bo'yicha «NVGKGHQI» Davlat muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi, fundamental va ilmiy-texnik loyihalari doirasida amalga oshirildi, shu jumladan: №156 «Ko'kdumaloq konining mahsuldor qatlamida burg'ilash qorishmalarning katastroofik yutilishga qarshi kurashish uchun to'ldiruvchilar va tamponaj qorishmalari qidirib topish va joriy etish»; № 538 «O'zbekneftgazgeologiya» GICHB konlarida yuqori o'tkazuvchan qatlamlarni burg'ilab o'tishda burg'ilash qorishmalarning yutilishiga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish; № PD 118-16 D «Anomal past qatlam bosimli neft va gaz konlarini ochishning usullari va ulublarini ishlab chiqish»; № PD 115-17 D «Anomal past qatlam bosimli mahsuldor qatlamlarni yangi yengillashtirilgan burg'ilash qorishmalarini tarkiblarini qo'llash orqali ochish usuli» tavsiyasidan foydalanish ustidan mualliflik nazorati; №52-19 NGG «Quduqlarni burg'ilashda yutuvchi qatlamlarini tadqiq qilish va berkitish»; № 21-20 GKG «O'zbekiston Respublikasi hududidagi qidiruv quduqlarini sifatli qazib loyihadagi chuqurliklariga yetkazishni ta'minlovchi rahbariy hujjatlarini ishlab chiqish»; №30-22 GKG 4-bo'lim. «Neft va gaz mintaqalarida quduqlarning yuqori sifatli qazishni ta'minlaydigan burg'ilash masalalarini kompleks tadqiq qilish va hal qilish».

**Tadqiqotning maqsadi** quduqlarni burg'ilash jarayonida yuzaga keladigan geologik murakkabliklarni oldini olish va bartaraf qilish uchun burg'ilash, tamponaj qorishmalarining yangi tarkiblarini va tamponaj ko'priklari o'rnatishning yangi usulini ishlab chiqish.

**Tadqiqot vazifalari:**

turli mintaqalarda quduqlarni burg'ilash jarayonida yuzaga keladigan geologik murakkabliklar to'g'risidagi ma'lumotlarni tizimlashtirish va tahlil qilish;

burg'ilash qorishmasining qatlamga yutilishi sabablarini tadqiq qilish, va reologik va fizik-kimyoviy xususiyatlari geologik kesmalar sharoitlariga moslashtirilgan burg'ilash qorishmalarining yangi mukammallashtirilgan tarkiblarini ishlab chiqish;

quduqlar kesimidagi proplastkalar bilan murakkablashgan turli qatlam bosimlari bilan avariyasiz qazishni ta'minlash uchun burg'ulash qorishmalarining yangi tarkiblarini ishlab chiqish;

burg'ilash qorishmalarining qatlamga katastrofik yutilib ketishini bartaraf qilish uchun oson topiladigan texnologik materiallardan foydalangan holda tamponaj aralashmalari va kompozitsiyalarining tarkiblarini ishlab chiqish;

neft va gaz sizib chiqishining sabablarini tadqiq qilish va murakkab intervallarni sifatli btrkitish uchun qatlam suyuqliklari bilan aralashtirilganda ham qotish qobiliyatiga ega bo'lgan tamponaj aralashmalarining samarali tarkiblarini ishlab chiqish;

quduq devorlarining qulashi, to'kilishi va torayishi sabablarini o'rganish va quduq devorlarining barqarorligini oldini olish va saqlash choralari ishlab chiqish;

burg'ilash qorishmalarining qatlamga yutilib ketishini, neft va gaz sizib chiqishi kabi murakkabliklar mavjud oraliqlarni yuqori sifatli berkitishni ta'minlaydigan tamponaj ko'priklari o'rnatishning yangi usulini ishlab chiqish.

tamponaj ko'priklari o'rnatish jarayonining matematik modelini ishlab chiqish;

**Tadqiqot ob'ekti** yuqori o'tkazuvchan, yuqori g'ovakli, yoriqli va beqaror qatlamlar, hamda qatlam mahsulotlari bilan to'yingan jinsli murakkab neft va gaz quduqlari.

**Tadqiqot predmeti** – burg'ilash qorishmalarining qatlamga yutilishi, neft va gaz sizib chiqishi, quduq devorlarining barqarorligini yo'qotilishi bilan bog'liq bo'lgan geologik murakkabliklarni oldini olish, bartaraf etish uchun burg'ilash va tamponaj qorishmalarining tarkibi, tamponaj ko'priklarini o'rnatishning yangi usuli.

**Tadqiqot usullari.** Dissertasiya ishida nazariy, analitik va eksperimental tadqiqotlarni qo'llab burg'ilash qorishmalarining qatlamga yutilishi, neft va gaz sizib chiqishi va quduq devorlarining barqarorligini yo'qotilishi muammolarini hal qilishga kompleks yondashuv usulidan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagicha:**

birinchi marta geologik, texnologik va foydalanish omillarni hisobga olgan holda turli mintaqalarda quduqlarni burg'ilash jarayonida yuzaga keladigan geologik murakkabliklar tizimlashtirildi;

yutuvchi kanallar o'rtasidagi o'zaro ta'sir mexanizmlari o'rganildi va burg'ilash qorishmasining qatlamga ketishini oldini olish va bartaraf etish uchun mahalliy korxonalarining chiqindilaridan tashkil topgan to'ldiruvchilardan foydalanib burg'ilash qorishmalarining yangi tarkiblari ishlab chiqildi, hamda burg'ilash qorishmasining qatlamga yutilishining sabablari aniqlandi;

konlardagi murakkab geologik-texnik sharoitlarda quduqlarni avariyasiz burg'ilab o'tish uchun anomal past qatlam bosimli (APQB) yengillashtirilgan va anomalyuqori qatlam bosimli (AYuQB) og'irlashtirilgan burg'ilash qorishmalarining yangi tarkiblari yaratilgan;

burg'ilash qorishmalarining AYuQB sharoitida katastrofik yutilishlarini berkitish uchun TA-1, TA-2 va TA-3 tamponaj aralashmalari va sintetik smolalar asosida tamponaj kompozitsiyalarining yangi tarkiblari ishlab chiqildi;

qatlamlardan neft va gaz sizib chiqib ketishi sabablari aniqlandi, qatlamlardan neft va gaz sizib chiqib ketishi va ochiq neft va gaz favvoralarini bartaraf etish uchun TA-4 tamponaj aralashmasi yaratildi;

beqaror, tuzli va gazli qatlamli quduqlarni burg'ilash uchun yangi gilmoyasiz, polimerli, tuzga to'yintirilgan burg'ilash qorishmalari ishlab chiqildi;

yuqori o'tkazuvchan, yuqori g'ovakli, yoriqli va beqaror qatlamlardagi murakkab oraliqlarni berkitish uchun tamponaj ko'priklari o'rnatishning yangi usuli ishlab chiqildi.

tamponaj ko'priklari o'rnatish jarayonining me'yoriy - texnologik ko'rsatkichlari xaritasini qo'llash orqali qatlamga burg'ilash qorishmalari qatlamga yutilishini bartaraf qilishning matematik modeli ishlab chiqildi.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

burg'ilash jarayonida uchraydigan murakkabliklar tizimlashtirildi va uning asosida qo'yilgan masalalarni yechish uchun baza taklif qilindi;

burg'ilash va tamponaj qorishmalarining asosiy xususiyatlarini aks ettiruvchi jadvallar vaquduqlarda uchraydigan yuqori haroratli, bosimli murakkab sharoitlarda qorishmalarga qo'shishga tavsiya etilgan to'ldiruvchilarning miqdoriga bog'liqlik chizmalari tuzildi;

birinchi marta Buxoro - Xiva hududining Chorjo'y va Buxoro pog'onalarida burg'ilash ishlarini muvaffaqiyatli olib borish uchun burg'ilash qorishmalarining tarkibini tanlab olish xaritalari ishlab chiqildi;

Beshkent egilmasi kon va maydonlari misolida tog' jinslarining namunalarini o'rganishlar natijasida yuqori o'tkazuvchanligi, yuqori g'ovakliligi, yoriqliligi oraliqlari aniqlandi va ularning asosida korrelyatsion bog'liqliklar gistogrammalari qurildi;

burg'ilash qorishmalarining qatlamlarga yutilishini oldini olish va bartaraflash uchun qorishmalarga to'ldiruvchilar bilan ishlov berish va tayyorlashning texnologik sxemasi ishlab chiqildi;

mahalliy ishlab chiqarish korxonalarini chiqindilardan tashkil topgan to'ldiruvchilar bilan ishlab chiqilgan burg'ilash qorishmalarining tarkibiy qismlariga alohida va burg'ilash qorishmalarining qatlamga yutilishini oldini olish uchun boshqa qo'shimchalar bilan birgalikda yaratilgan tarkiblarining burg'ilash tashkilotlari uchun o'ta zarurligi asoslab berildi;

ishlab chiqilgan burg'ilash va tamponaj qorishmalari tarkiblari qorishmalarining qatlamga yutilishi, neft va gaz sizib chiqib ketishi va quduq devorlarining barqarorligini buzilishi bilan bog'liq geologik murakkabliklarni bartaraflash uchun joriy qilindi;

tamponaj ko'priklarini o'rnatishning yangi usuli qo'llaniladigan holatda quduqning ustini asbob-uskunalar bilan jihozlash sxemasi ishlab chiqildi;

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Natijalarning ishonchliligi burg'ilash qorishmasining qatlamga yutilib ketishi, neft va gaz sizib chiqishi va quduq devorlarining barqarorligini yo'qotilishi bilan bog'liq yuzaga keladigan

murakkabliklarni oldini olish va bartaraf etish uchun ishlab chiqilgan tarkiblarning yigirmadan ortiq turli quduqlarda qo'llaniganligi va ishlab chiqilgan tamponaj ko'priklari o'rnatishning yangi usulini o'ndan ortiq «O'zbekneftgaz» AJning konlarida joriy qilinganligi, hamda quduqlardan olingan yangi nazariy, analitik va eksperimental tadqiqotlar natijalari qo'llash orqali tasdiqlanganligi.

### **Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, yangi yengillashtirilgan, og'irlashtirilgan, ingibirlangan va to'ldiruvchilar bilan ishlov berilgan burg'ilash qorishmalari, tamponaj qorishmalari, aralashmalari va kompozitsiyalari, hamda burg'ilash qorishmalarini qatlamlarga yutilishi, neft va gaz sizib chiqib ketishi va quduq devorlarining barqarorligini ta'minlaydigan, tamponaj ko'priklari o'rnatish yo'li bilan murakkabliklarni bartaraf etishning yangi usulining ilmiy asoslari ishlab chiqilishi. Burg'ilash qorishmalari va tamponaj aralashmalari tarkibiy qismlarining o'zaro bog'liqligi o'rganildi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati gilli, beqaror tog' jinslarining qulashini oldini olish va bartaraf qilish, burg'ilash qorishmalarining yuqori o'tkazuvchan, yuqori g'ovakli va yorilgan qatlamlarga katastrofik ravishda yutilib ketishi, shuningdek, neft va gaz sizib chiqishi va ochiq neft va gaz favvoralarini oldini olish choralarishlab chiqishdan iborat bo'lib, bu quduqlarni qurilish jarayonini tezlashtiradi va qazishning bir metrlik tannarxini pasaytiradi.

**Tadqiqot natijalarini joriy etish.** Bajarilgan tadqiqotlardan olingan ilmiy natijalar asosida murakkab geologik va texnik sharoitlarda quduqlarni qazishda uchraydigan geologik murakkabliklarni oldini olish, bartaraf etish va kurashish bo'yicha quyidagi ishlanmalar ishlab chiqarishga joriy qilindi:

Mahalliy ishlab chiqarish korxonalari chiqindilaridan (diatsetat va triatsetat sellyulozalar) tashkil topgan to'ldiruvchilar yordamida ishlab chiqilgan burg'ilash qorishmalarining yangi tarkiblari qorishmalarining qatlamlarga yutilishlarini bartaraflashda quyidagi quduqlarga joriy qilingan: Yangi G'uzor maydonining 2-sonli, G'uzor maydonining 2-sonli, Shimoliy G'uzor maydonining 5-sonli, G'arbiy Kemachi maydonining 1-sonli, Chiston maydonining 4-sonli, Shakarbuloq konining 12-sonli va Ko'kdumaloq konining 96, 129-sonli quduqlari ("O'zbekneftgaz" AJning 2024-yil 27-martdagi 05-24-251-sonli ma'lumotnomasi). Ishlab chiqilgan burg'ilash qorishmalari diatsetat sellyuloza va triatsetat sellyuloza to'ldiruvchilari bilan alohida va kompozitsiyada iqtisodiy samaradorlik har bir quduq uchun 5 060 005 154 (besh milliard oltmish million besh ming bir yuz ellik to'rt) so'mni tashkil etdi;

burg'ilash qorishmalarining qatlamlarga katastrofik yutilishini oldini olish uchun ishlab chiqilgan TA-3 tamponaj aralashmasining tarkibi va tamponaj ko'priklarini o'rnatishning yangi usuli yordamida quyidagi quduqlarda qo'llanildi: № 64, 84, 85, 89, 90, 235, 244, 276 sonli Ko'kdumalak gazneft koni quduqlari va Janubiy Tandircha konining 30-sonli quduqi («O'zbekneftgaz» AJning 2024-yil 27-martdagi 05-24-251-son ma'lumotnomasi). Yangi TA-3 tamponaj aralashmasi tarkibini va ko'priklarini qo'yishning yangi usulini joriy etish natijasida olingan iqtisodiy samaradorlik har bir quduq uchun 4 940 042 152 (to'rt milliard to'qqiz yuz qirq million qirq ikki ming bir yuz ellik ikki) so'mni tashkil etdi.

ishlab chiqilgan gilsiz, polimerli, tuzga to'yintirilgan burg'ilash qorishmalari Ustyurt mintaqasidagi Arslon konining 8-qudug'ini burg'ilash natijasida beqaror, gaz sizib chiqib ketuvchi oraliqlarni qazib o'tishda muvoffaqiyatli joriy etildi. («O'zbekneftgaz» AJning 2024-yil 27-martdagi 05-24-251-son ma'lumotnomasi). Qorishmalarning yangi tarkibini joriy etish natijasida burg'ilash asbobining ushlanib qolishi bilan bog'liq avariyaning vasodir bo'lishi mumkin bo'lgan gaz favvorasining oldi olindi.

murakkab oraliqlarni qazishda ishlatishga mo'ljallangan burg'ilash qorishmasi tarkibini joriy etish natijasida, diametri 219 mm bo'lgan texnik kolonnalar uchun murakkab oraliqlarni qazishda Ustyurt mintaqasi Surgil konining 8-sonli qudug'ini avariya-siz va boshqa asoratlarsiz qazib o'tilishiga erishildi. («O'zbekneftgaz» AJning 2024 yil 27 martdagi 05-24-251-sonli ma'lumotnomasi);

ishlab chiqilgan TA-4 tamponaj aralashmasi, Ko'kdumaloq gazneft koni 90-qudug'ida neft va gaz sizib chiqib ketishini to'xtatish uchun qo'llanildi («O'zbekneftgaz» AJning 27.03.2024 yildagi 05-24-251-son ma'lumotnomasi). Aralashmani joriy etish natijasida neft va gaz sizib chiqib ketishini to'liq berkitishga, quduqlarni qurilishi vaqtini qisqartirilishiga, mahsulotni sizib chiqib ketishini bartaraflashga sarflanadigan texnologik materiallar, shuningdek boshqa berkitish tadbirlarga zarur bo'lgan xarajatlarni kamaytirilishiga muvaffaq bo'lindi.

**Tadqiqot natijalarini taqdimqilinishi.** Tadqiqotning asosiy natijalari 4 ta Respublika ilmiy, ilmiy-texnik konferensiyalarida, hamda 3 ta xalqaro ilmiy va ilmiy - amaliy konferensiyalarda taqdim etildi va muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining nashr etilishi.** Dissertasiya mavzusida jami 30 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, ulardan 2 tasi monografiya, 10 tasi respublika jurnallarida va 3 tasi O'zbekiston Respublikasi oliy attestasiya komissiyasi tomonidan fan doktori dissertatsiyasining asosiy ilmiy natijalarini nashr etish uchun tavsiya etilgan xorijiy jurnallarda chop etildi.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertasiya kirish, beshta bob, xulosa, 132 ta foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va 8 ta ilovadan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 203 sahifani tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi, maqsadi va vazifasi asoslangan. O'tkazilgan tadqiqotlarning O'zbekiston Respublikasining zamonaviy fan, texnika va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi aks ettirildi, shuningdek o'tkazilgan tadqiqotlar natijalarining ilmiy va amaliy baholanishi va ahamiyati keltirildi. Ishlanmalarni amalda tadbir etilishining haqiqiy natijalari, bajarilgan tadqiqot ishlari nashr etilganligi va dissertasiya tuzilishi to'g'risidagi ma'lumotlar taqdim etildi.

Dissertatsiyaning birinchi – **«Geologik murakkabliklarga qarshi kurashish masalasini o'rganilganlik holati va adabiyot manbalarni sharhlash»** – nomli bobi murakkab burg'ilash oraliqlari masalalarini o'rganishga bag'ishlangan va burg'ilash qorishmasining qatlamga yutilishi, neft va gazning qatlamdan sizib chiqib ketishi va quduq devorlarining barqarorligini yo'qolishini,

hamda sodir bo'ladigan murakkabliklar yo'nalishidagi adabiyot manbaalari sharhlariga bag'ishlangan.

O'zbekiston hududida beshta neft-gaz mintaqasi mavjud: Farg'ona, Surxondaryo, Hisor, Buxoro-Xiva va Ustyurt neftgazli mintaqalari. Ushbu o'lkalarning geologik tuzilishi, paleozoyning kristalli poydevorida joylashgan yura, bo'r, paleogen va neogen davridagi tog' jinslarining konlarini o'z ichiga oladi. Dissertatsiyada barcha mintaqalarda g'ovaklilik va o'tkazuvchanlik bo'yicha tadqiqotlar o'tkazildi, shu jumladan tektonik yoriqlar bilan ikkiga bo'lingan Buxoro-Xiva neft va gaz mintaqasining Buxoro va Chorjo'y tektonik pog'onalarining ma'lumotlari o'rganildi.

Ushbu pog'onalar uchun maydonlar va konlarning qatlam bosimiga qarab burg'ilash qorishmasi ko'rsatkichlarining o'zgarishi bo'yicha xaritalar ishlab chiqildi, hamda ular asosida burg'ilash qorishmasining turlari va ko'rsatkichlari qatlam bosimining o'zgarishini, tabiiy kollektorlik xususiyatlarini saqlab qolish uchun quduqlarning chuqurligini hisobga olgan holda tanlash mumkin bo'ladi, shuningdek mahsuldor gorizontlarni murakkablarsiz ochishni va quduqni burg'ilashni muvaffaqiyatli tugatishga imkon beradi.

Eksperimental tadqiqotlar natijalariga ko'ra Beshkent egilmasining karbonat qatlamlaridan olingan 120 ta tog' jinslari namunalarini g'ovakliligi aniqlandi va gistogramma qurildi. Tanlab olingan 23 dona tog' jinslari namunalarining o'tkazuvchanligini o'rganib chiqilgandan so'ng o'tkazuvchanlik gistogrammasi qurildi va ushbu tog' jinslarining gaz o'tkazuvchanligi logarifmi aniqlandi, ular darsining ulishidan bir necha darsigacha o'zgaradi.

G'ovaklilik va o'tkazuvchanlik gistogrammalariga, shuningdek korrelyatsion bog'liqliklarga ko'ra, burg'ilash jarayonida yuzaga keladigan asosiy geologik murakkabliklar Buxoro yarusi va mahsuldor qatlamning (XV gorizont) pastki qismida, ya'ni yuqori o'tkazuvchanlikka, yuqori g'ovaklikka va kovaklarga ega bo'lgan ohaktoshli qatlamlarni qazib o'tishda burg'ilash qorishmalarining qisman yutilishidan katastrofik xarakterdagi yutilishgacha sodir bo'lishi mumkin.

Ko'rib chiqilayotgan yo'nalishlar bo'yicha O'.J. Mamajonov, A.K. Raximov, V.I. Krilov, V.I. Mishevich, A.X. Mirzajonzoda, R.I. Shishenko, B.M. Kurochkin va boshqa mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlarni o'rganilib, qazilayotgan quduqlarda burg'ilash qorishmalarining yutilishi g'ovakli, yoriqli va kovakli qatlamlardagi jinslarda sodir bo'lishi tasdiqlandi. Bunday tog' jinslariga qum-alevrolitli jinslar kiradi va ular g'ovakli va yoriqli o'tkazuvchanlikka ega. Gilli bo'r yotqiziqlarida jinslarning o'pirilishi va to'kilishi sodir bo'ladi, qumsimon jinslar mavjud joylarda esa quduq stvolining gilli qobiqning o'sishi hisobiga torayishi kuzatiladi.

O'zbekistonda burg'ilash qorishmalarining qatlamga yutilishi muammolari bilan M.K.Turovov K-4, K-9 kimyoviy reagenti bilan ishlov berilgan yuqori sirt tarangligiga va qovushqoqlikka ega bo'lgan burg'ilash suyuqliklarini taklif qilgan.

N.A. Abduraximov esa karbamidformaldegid va mochevinoformaldegid smolalari asosida KPA-5 qotiruvchi moddalari yordamida berkitishni tavsiya qilgan.

V.I. Mishevich tomonidan burg'ilash qorishmalarining yoriqli, kovakli va g'ovakli qatlamlarga yutilib ketishi alohida belgilandi.

A.X. Mirzajonzoda tomonidan esa burg'ilash qorishmalarining qatlamlarga yutilishini klassifikasiyalash davrida qorishmalar yutilishining asosi o'tkazuvchanlikdir deb bosimlarning farqlari hisobiga sodir bo'lishini etirof qilgan.

V.I. Krilovning talqini bo'yicha qumli-gilli tog' jinslari ularning g'ovaklarining o'lchamlariga bog'liq bo'lib, ular subkapillyar, kapillyar va o'ta kapillyar bo'ladi. Bir-biri bilan bog'langan g'ovaklar, suyuqlik va gaz harakatlanuvchi g'ovakli kanallarni yuzaga keltiradi va burg'ilash qorishmalarining qatlamga yutilishining asosiy sababchisi bo'lishi mumkin.

So'nggi yillarda to'ldiruvchilar bilan ishlov berilgan burg'ilash qorishmalari keng miqyosda qo'llanilmoqda va AQShda burg'ilash qorishmalari yutilishining 65% gacha miqdori inert to'ldiruvchilar yordamida oldi olinadi va bartaraf qilinadi. Hozirgi vaqtda 70 ga yaqin ixtisoslashgan tashkilotlar va firmalar 800 dan ortiq turdagi inert va turli o'lchamdagi kompozitsiyalarni yetkazib berishadi. Katastrofik yutilish sodir bo'ladigan boshqa qatlamlarda esa tamponaj qorishmalari, aralashmalari yoki kompozitsion materiallar ishlatiladi.

O'zbekistonning neftgazli hududlarining barchasida neft va gaz quduqlarini burg'ilash jarayonida turli hildagi filtrlash-sig'im xususiyatlariga ega bo'lgan qatlamlarda neft va gaz sizib chiqishi va ochiq neft va gaz favvoralari yuzaga keladi. Ushbu holatlar konlarni izlash, qidirish va qazib olish ishlari olib boriladigan joylarda yuzaga keladi, hamda tahdid qiluvchi (favqulotda) neft va gaz sizib chiqib ketishi va ochiq neft va gaz favvoralari tez-tez sodir bo'ladi.

O'.J. Mamajonov qatlamdan gaz sizib chiqishining sababini sement qorishmasi va quduqqa o'rnatiladigan kolonnalar orasida kontakt joyidagi kanallar orasidan pufakchalar ko'rinishida bo'lib, yuqoriga harakati va bosimning gidrostatik holatigacha tushib ketishidan deb hisoblaydi. Shuning uchun u quvurlarning yuzasi organik massa yordamida tayyorlangan qumlar bilan qoplashni tavsiya qiladi.

V.I. Igrevskiy ochiq neft va gaz favvoralarini favqulotdagi favvoralar deb nomlashni to'g'ri deb hisoblaydi, sababi ular o'ta falokatli xarakterga ega. O'ta falokatli favvoralar asosan kelib chiqishi sababini bilmaslik, burg'ilash brigadasi a'zolarining noto'g'ri harakatlari tufayli, burg'ilash asbob uskunalaridagi ehtiyot qismlarning, uzellarning zapor qurilmasining ishdan chiqishi va aylanadigan burg'ilash qorishmasining nazorati yo'qligidan kelib chiqadi.

Aylanma burg'ilash qorishmasining neft yoki gaz bilan to'yinganligi, gaz pufakchalari paydo bo'lishi, qorishmadagi neft plyonkasi, uning quduq usti orqali o'z-o'zidan toshib ketishiga, mahsuldor qatlamlarni ochish jarayoniga alohida e'tibor berish zarur, aksincha neft va gaz sizib chiqib ketishi yoki ochiq neft va gaz favvorasiga yo'l qo'yiladi. Buning sababi qatlam bosimining haqiqiy qiymatini bilmaslikdir, natijada qatlamga yetarlicha qarshi bosim bera olmaydi, qatlam bo'ylab yuqori tezlikda qazib o'tishdir.

P.E. Chaneyning fikricha neft va gaz sizib chiqib ketishi yoki ochiq favvoralar quduqdagi anomal yuqori qatlam bosimi (AyuQB) tufayli sodir bo'ladi. AYuQB qatlamda yuqori molekulyar moddalarning nisbatan yengil

uglevodorodlarga aylanishi oqibatida hajmining oshishi natijasida sodir bo‘ladi. Anomal bosimlar doirasi kollektorlar bilan o‘ralgan joyda bo‘lishi kerak.

Quduqlarni burg‘ilash jarayonida tez-tez uchraydigan murakkabliklardan biri, quduq devorlarining qulashi va o‘pirilishi, hamda quduq devorlarining barqarorligini ta‘minlashga to‘sqinlik qiladigan diametrining torayishi natijasida yuzaga keladi. Quduq devorlarining qulashi va o‘pirilishi zichlangan gillar, argillit yoki gilli slanetslarni qazib o‘tish natijasida sodir bo‘ladi. Aylanma qorishma yoki uning filtri bilan namlanishi natijasida zichlangan gil, argillit yoki gilli slanetsning mustahkamligi pasayadi, bu ularning qulashiga olib keladi. Qorishmalarda ko‘p miqdorda mavjud bo‘lgan erkin suvning siqilgan gillardan tashkil topgan qatlamlarga kirib borishi ularning shishishiga, quduq devorining bo‘rtib chiqishiga va parchalanishiga olib keladi. Quduq devorlarning to‘kilishi va qulashi, burg‘ilash asbobining quduq devorlariga mexanik ta‘siridandir, bu burg‘ilash asbobining quduq devorlariga urilishi natijasida sodir bo‘ladi. Ushbu yo‘nalish bo‘yicha V.D. Gorodnov tomonidan olib borilgan kraxmal, akril polimerlari (K-4, gipan, metas), gumat reagentlari (KIR, TIR) va boshqa reagentlar ta‘sirida o‘zining barqarorligini saqlab qoladi.

Dissertasiyaning ikkinchi bobi «**Ishlab chiqarish materiallarini tahlil qilish va neft va gaz quduqlarining murakkablik holati**» ga bag‘ishlangan va o‘z ichiga quyidagi materiallarni oladi:

– so‘nggi 20 yil ichida burg‘ilash qorishmalarining 108 ta quduqda qatlamlarga yutilishi bo‘lgan, shu jumladan: Buxoro yarusida 52 ta qidiruv, izlov–qidiruv va foydalanish quduqlarida, bo‘r va yura yotqiziqlari va Ko‘kdumaloq gazneft konining 56 ta qudug‘ining XV – gorizontida sodir bo‘lgan;

– neft va gaz sizib chiqishi bo‘yicha – 136 ta quduq, shu jumladan: BXNGH – 96 ta quduq, Farg‘ona NGH – 22 ta quduq; Ustyurt NGH – 9 ta quduq va Surxondaryo NGH – 9 ta quduq;

– quduq devorlarining barqarorligini yo‘qotish natijasida paydo bo‘lgan 10 yil ichida burg‘ilash asboblari, nasos-kompressor quvurlari, karataj asboblari va quduqqa o‘rnatiladigan kolonnalarning ushlanib qolishi.

Yuqorida sanab o‘tilgan yo‘nalishlar bo‘yicha olingan barcha murakkabliklar materiallari o‘rganib chiqildi, umumlashtirildi va tahlil qilindi.

Masalan, burg‘ilash qorishmasining qatlamga yutilib ketishi va keyinchalik gaz sizib chiqib ketishi Shurtan konining 33, 55, 97, 100 sonli quduqlarini, Ko‘kdumaloq konining 3, 244, 235, 90, 259, 64, 105, 106, 108, 90 va boshqa quduqlarini burg‘ilashda qayd etilgan. Ba‘zi hollarda, yuqori o‘tkazuvchan, g‘ovak jinslarni qazib o‘tish jarayonida 10 sm dan bir necha metrgacha bo‘lgan burg‘ilash asbobining "cho‘kishi" kuzatiladi. Burg‘ilash asbobining "cho‘kishi" sodir bo‘lgan bunday quduqlarga 38-sonli Pomuq qudug‘i 2760-2765,5 m oraliqda, 206-sonli Zevardi qudug‘i 2660 – 2667 m oraliqda, 64-sonli Ko‘kdumaloq qudug‘i 3010 – 3011 m oraliqda cho‘kkan quduqlar kiradi.

Burg‘ilash qorishmalarining qatlamga katastrofik ravishda yutilib ketishi va ketidan keyinchalik gaz sizib chiqib ketishi natijasida quduqlarni chuqurlashtirishni davom ettirishning iloji yo‘qligi sababli ba‘zi foydalanish

quduqlari to'xtatildi va tugatildi. Bularga 33 sonli Pomuq, 171 va 206 sonli Zevardi, 55, 62, 81, 69, 74, 249, 275 sonli Ko'kdumaloq quduqlari kiradi.

Ishlab chiqarish materiallarini o'rganish va tahlil qilish natijasida burg'ilash qorishmasining qatlamga yutilishini quyidagi asosiy sabablari aniqlandi:

-qatlamlarni burg'ilashda qorishmalarining yutishga moyil tabiiy kanallarning mavjudligi (g'ovaklar, yoriqlar, kovaklar, jarliksimon bo'shliqlar va boshqalar);

-gidrodinamik va gidrostatik bosimlarning qatlam bosimidan oshib ketishi sababli;

-burg'ilash qorishmalarining turlarini va xossalarini noto'g'ri tanlanishi oqibatida;

-qatlam tuzilishi va "qatlam-quduq" mujmuasidagi sodir etilishi mumkin bo'lgan geologik murakkabliklar to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lmagan ijrochilar tomonidan qazish texnologiyasining buzilishi;

-ko'tarib-tushirish operatsiyasi qoidalarining buzilishi;

-mahsuldor qatlamlarni ochish texnologiyasining buzilishi, geologik - texnik naryadning talablariga, hamda murakkabliklar sodir bo'lishi mumkin bo'lgan rejaga amal qilmaslik;

-tsirkulyatsiya majmuasidagi burg'ilash qorishmalarining past-balandligi darajasining nazorat qilinmaganligi;

-burg'ilash asbobining quduq devorlariga beradigan zarbalar, silkinishlar, katta ortiqcha bosimlar va boshqa ta'sirlar.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, 136 ta neft va gaz sizib chiqishi va otqinlar yuzaga kelishi holatlaridan 13 ta quduqda ochiq neft va gaz favvoralari kuzatilgan, ularni bartaraf qilish uchun 4 sutkadan (Gazli maydoni 2 sonli quduq) 1031 sutkagacha (O'rtabuloq koni 11 sonli quduq) vaqt sarflangan. Sutkalik gaz yo'qotilishi 18-20 million kubometrni tashkil etgan.

1- jadvalda turli darajadagi va jadallikdagi neft va gaz favvoralarining yuzaga kelishining asosiy sabablari keltirilgan.

1 – jadval

**Burg'ilash qorishmalarining otqinlari va ochiq neft va gaz favvoralarining sabablari**

<b>Tartib raqami</b>	<b>Yuzaga kelish sabablari</b>	<b>Soni</b>	<b>Umumiy sonidan foiz hisobida</b>
1.	Burg'ilash asbobini ko'tarish jarayonida quduqni burg'ilash qorishmasi bilan o'z vaqtida to'ldirmaslik	25	21,9
2.	Burg'ilash qorishmasining qatlamga yutilishi bilan konlarni ochish	11	9,65
3.	APQB qatlamlarini kichik zichlikdagi qorishmalarda ochish	9	7,89
4.	Ko'tarib-tushirish operatsiyalari paytida porshen effektining paydo bo'lishi	11	9,65
5.	Sement ko'prigini o'rnatish qoidalarini buzish	4	3,51
6.	Murakkab oraliq haqida ma'lumot yetishmasligi	15	13,51

7.	Sementning qotishini kutish (SQK) paytida gaz gorizontlariga bosimning pasayishi	21	18,42
8.	Oqim gazining hosil bo'lishi va favvoralari	7	6,14
9.	Mahsuldor qatlamni sinash va sinov paytidagi sizib chiqishlar va favvoralar	11	9.65

Belgilanganidek, asosan yuzaga kelgan ochiq favvoralar burg'ilash quvurlarini ko'tarish paytida burg'ilash qorishmalari bilan o'z vaqtida to'ldirilmasligi natijasida 25 quduqda yuzaga keldi.

21 holatda, ochiq favvoralar sementning qotishini kutish paytida, ya'ni suyuq holatdan tamponaj toshiga o'tish jarayonida, hamda tamponaj qorishmasining cho'kishi (sedementatsiya) jarayonida yuzaga keldi.

15 holatda quduqlarning kesimidagi murakkab oraliqlar to'g'risida ishonchli axborot yo'qligi sababli ma'lumot olinmagan. Boshqa hollarda, asosan, favvoralar mahsuldor qatlamlarni ochish qoidalarini buzilishi va qatlamni sinash va sinovdan o'tkazish paytida sodir bo'lgan.

O'zbekiston maydonlari va konlarida neft va gaz quduqlarini burg'ilash jarayonida biz ko'pincha quduq devorlarini tashkil etuvchi jinslarning qulashi va to'kilishi natijasida yuzaga keladigan quduq devorlarining barqarorligini yo'qotilishiga duch kelamiz, bu esa gilli qatlamlar va oqishga moyil jinslar to'plangan joylarda g'ovaklik, nov shakllanishi va quduqlar devorlarining torayishiga olib keladi.

2 – jadval

### O'zbekistonning neft va gazli mintaqalarida 2002-2022 yillarda burg'ilash asboblari ushlanib qolish sabablari to'g'risida ma'lumot

Tar-tib №	Neft va gaz mintaqalari	quduqlarning umumiy soni, dona	ushlanishlar soni, dona	Shu jumladan quyidagi sabablarga asosan:									1 quduq uchun ushlanib chastotasi qolish
				burg' ilash asbobini harakatsiz qoldirish	nov shakllanishi	salnik shakllanishi	tog' jinslarining qulashi va to'kilishi	asbobning qisilib qolishi	qorishma tozalanishining qoniqsizligi	«quduq-qatlam» majmuasibosimi	quduq devorlariga iishlov berishda	Burgilash asbobining sinishi	
1.	Farg'ona	29	36	4	1	3	9	6	1	5	4	3	1,24
2.	Surxondaryo	26	24	3	1	1	6	2	2	4	2	4	0,92
3.	Ustyurt	78	55	4	3	5	14	11	2	2	6	8	0,71
4.	Buxoro-Xiva	154	130	12	7	10	37	20	9	4	12	19	0,84
5.	Hisor	3	4	-	-	-	2	-	-	-	-	2	1,33
Jami:		290	249	23	12	19	68	39	14	15	24	36	0,86

Ba'zi tadqiqotchilar tog' jinslarining qulashining asosiy sababi burg'ilash paytida yuzaga keladigan geologik va texnik sharoitlar deb hisoblashadi. Boshqalarning fikriga ko'ra, quduqlar devorlarining qulashi ko'proq qatlamlarning

katta burchak ostida bo'lgani va burg'ilash qorishmalari zichligining pasayishidan sodir bo'ladi. V.S. Baranovning tadqiqotlariga asosan burg'ilash qorishmasining zichligini og'irlashtirish quduq devorlarining qulashiga to'sqinlik qilmaydi, ammo quduqning qulab tushgan jinslardan tozalashni yengillashtiradi.

“O‘zbekneftgaz” AJ faoliyati hududida izlov-qidiruv va ekspluatatsiya quduqlarini burg'ilash jarayonida materiallarni o'rganish va tahlil qilish natijasida O‘zbekiston neft-gaz mintaqalarida nasos-kompressor quvurlari, karotaj uskunalari, burg'ilash va quduqqa o'rnatiladigan kolonnalarning ushlanib qolishining asosiy sabablari aniqlandi (2–jadval)

Dissertasiyaning uchinchi – **«Quduqlarni burg'ilashda murakkabliklarni oldini olish va bartaraf etish uchun burg'ilash qorishmalarining yangi tarkibini ishlab chiqish»** – bobida, quduqlarni burg'ilash jarayonida qorishmalarning qatlamga yutilishini oldini olish va bartaraf qilishning samarali choralaridan biri bu aylanma yuvuvchi suyuqligiga to'ldiruvchilar kiritishdir. To'ldiruvchilardan foydalanishning asosiy maqsadi burg'ilash qorishmasi bilan yutilib ketish oralig'ida o'tkazmaydigan ekranyaratish, yutuvchi qatlamlarni to'liq berkitish uchun qobiq hosil qilishdir.

Ma'lumki, to'ldiruvchilar yutuvchi qatlamlar kanallariga kirib, ularni to'sib qo'yishi, hamda qatlamlarda shishish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak, qorishmaga qo'shilganda esa burg'ilash nasoslari tomonidan torta olinishi va burg'ilash qorishmalariga nisbatan inert bo'lishi kerak.

Azotli o'g'itlar ishlab chiqarish zavodlarining chiqindilari bo'lgan diatsetat selluloza va triatsetat sellulozalar to'ldiruvchi sifatida tanlandi.

Yangi to'ldiruvchilar bilan quyidagi tadqiqotlar o'tkazildi:

- barcha to'ldiruvchilarning fraksiya tarkibi aniqlandi;
- qurilmaga o'rnatish uchun yuqori g'ovakli, yuqori o'tkazuvchan tog' jinsi materiallaridan qatlam flyuidlari va o'tkazuvchanligini tadqiq qiladigan qurilmaning (QFO'TQ–01) maxsus qoliplariga tushadigan shakllar tayyorlandi;
- quduqning ichki sharoitlarini modellashtirgan QFO'TQ – 01 laboratoriya qurilmasida har bir to'ldiruvchi turining tog' jinsi namunisining ichiga kirib borish chuqurligi aniqlandi;
- VM–6 qurilmasiga tog' jinslari namunalari tayyorlandi va joylashtirildi va to'ldiruvchili qorishma tayyorlanib, har bir to'ldiruvchi turining namuna ichiga kirib borish chuqurligi aniqlandi, hamda QFO'TQ – 01 qurilmasida olingan natijalari bilan taqqoslandi;
- suv, burg'ilash qorishmasi va gaz kondensatida to'ldiruvchilarning shishish darajasi chiziqli ravishda aniqlanadi;
- burg'ilash qorishmasini qatlamga yutilishini oldini olish va bartarflash uchun to'ldiruvchilar bilan burg'ilash qorishmasiga ishlov berish va tayyorlashning texnologik sxemasi ishlab chiqildi.


Burg'ilash qorishmalarining tarkibiga qo'shiladigan to'ldiruvchilar har tomonlama o'rganib chiqilgandan so'ng, diatsetat va triatsetat selluloza to'ldiruvchilari bilan alohida, yog'och qirindisi, asbest tolalari bilan birgalikda, hamda paxta tozalash zavodlari chiqindisi bilan birgalikda qo'shilishi tarkib ishlab chiqildi, burg'ilash qorishmasining qatlamga yutilishiga qarshi kurashish uchun

tayyorlandi. Diatsetat va triatsetat selluloza to'ldiruvchilari bilan burg'ilash qorishmasining tarkibini eksperimental o'rganish natijalari 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

**Burg'ilash qorishmasining qatlamga yutilishiga qarshi kurashish uchun DAS va TAS to'ldiruvchilari bilan ishlab chiqilgan burg'ilash qorishmasining tarkibi**

Tar. №	Qorishma turi	Toldiruvchilar tarkibi %	zichligi, g/sm <sup>3</sup>	Qovushqoqligi, s	suv ajralishi, sm <sup>3</sup> /30min	SNS, sm <sup>3</sup> 1/10min da	Ph	K, mm	Eslatma
1.	Dastlabki qorishma	-	1,30	31	8,0	17/21	7	2	Burg'ilash qorishmasiga 5, 10, 15, 20% miqdorda DAS va TAS qo'shilsa, zarrachalar muallaq holatda bo'ladi.
2.	Dastlabki qorishma +DAS	5	1,29	-	8,0	19/24	7	2	
3.	Bu ham	10	1,28	-	7,5	20/25	7	2	
4.	Bu ham	15	1,27	-	7,0	22/26	8	2,5	
5.	Bu ham	20	1,26	-	6,5	23/29	9	2,5	
6.	Dastlabki qorishma +TAS	5	1,29	-	8,0	18/24	7	2	
7.	Bu ham	10	1,28	-	7,5	21/26	7	2	
8.	Bu ham	15	1,27	-	7,0	24/30	8	2,5	
9.	Bu ham	20	1,27	-	6,5	27/33	9	3	



**1–rasm. Yuqori g‘ovakli, yuqori o‘tkazuvchan, tog‘ jinsi – a) diatsetat va triatsetat tsellyuloza to‘ldiruvchi moddalarining; b) yog‘och qirindisi; d) asbest tolalari; va e) paxta tozalash zavodlarining chiqindilari bilan;**

1– rasmda yog‘och qirindisi, asbest tolalari va paxta tozalash zavodlarining chiqindilari bilan kompozitsiyada yuqori g‘ovakli, yuqori o‘tkazuvchan turlarning diatsetat va triatsetat tsellyuloza to‘ldiruvchi moddalari bilan o‘zaro bog‘liqligi va berkitish mexanizmi keltirilgan.

Burg‘ilash uchun turli xil murakkab sharoitlarini hisobga olgan holda, quyidagi yangi tarkiblari ishlab chiqildi:

- APQB sharoitida quduqlarni burg‘ilash uchun yengillashtirilgan burg‘ilash qorishmalari, hamda kaliy va natriy formiatlari asosida AYUQB uchun og‘irlashtirilgan burg‘ilash qorishmalari tarkiblari;

- quduq stvolining barqarorligini saqlash uchun uch turdagi ingibirlangan burg‘ilash qorishmalari, shu jumladan:

a) turli xil gillardan (PBMB, PBG, PPD) foydalanish va mahalliy materiallar (xloridli kaliy, suyuq shisha, sement zavodi pechining changi) bilan ishlov berilgan qorishmalar;

b) turli xil polimer reagentlari (KMS, uniflok, K-4, PAA va boshqalar) va mahalliy kukun materiallari (Sho‘rsuv giltuprog‘i, Uchquloch dolomiti, Kitob karerining ohaktosh va marmar kukunlari) bilan tayyorlangan qorishmalar;


c) karbonat jinslari (mergel, bo‘r, ohaktosh, dolomit, siderit) va mahalliy kukun materiallari, hamda polimer reagentlari asosida ishlab chiqarilgan kam gilli burg‘ilash qorishmalari;

– gilsiz, polimerli, tuzga to‘yintirilgan burg‘ilash qorishmalari Ustyurt qidiruv burg‘ilash boshqarmasi Arslon maydoni 8-sonli qudug‘ida 3551-3664 m oralig‘idagi mahsuldor qatlamni ochishda muvaffaqiyatli qo‘llanilib, sanoat miqiyosida gaz oqimi olindi.

